



## BO'LAJAK BOSHLANG'ICH SINF O'QITUVCHILARIDA YANGI AVLOD DARSLIKLARI BILAN ISHLASH METODIKASINI RIVOJLANTIRISH

*Turg'unboyeva Mashxura*

*NamDPI boshlang'ich ta'lim yo'naishi*

*1-kurs magistratura talabasi*

[\*mashuraturgunboeva81@gmail.com\*](mailto:mashuraturgunboeva81@gmail.com)

**Annotatsiya:** Mazkur maqolada boshlang'ich sinf o'qituvchilarining yangi avlod darsliklari bilan ishlashga o'rnatish metodikasini shakllantirish jarayonlari tahlil qilingan. Tadqiqotda boshlang'ich sinf o'qituvchilarining darsliklar bilan ishlash ko'nikmalarini shakllantirishning nazariy va amaliy jihatlari hamda uning dolzarb masalalari ko'rib chiqilgan. Darslik bilan samarali ishlash mexanizmlari tadqiq qilingan. Yangi avlod darsliklari bilan ishlash bo'yicha tausiyalar yoritilgan.

**Kalit so'zlar:** Darslik, metodika, metod, bilim, tajriba, boshlang'ich sinf, pedagogik ko'nikmalar, o'qituvchilar, ta'lim jarayoni, didaktika.

## РАЗРАБОТКА МЕТОДИКИ РАБОТЫ С УЧЕБНИКАМИ НОВОГО ПОКОЛЕНИЯ У БУДУЩИХ УЧИТЕЛЕЙ НАЧАЛЬНЫХ КЛАССОВ

**Аннотация:** В статье анализируются процессы формирования методики подготовки учителей начальных классов к работе с учебниками нового поколения. В ходе исследования были рассмотрены теоретические и практические аспекты формирования навыков работы учителей начальных классов с учебниками, а также ее актуальные проблемы. Изучены механизмы эффективной работы с учебниками. Даны рекомендации по работе с учебниками нового поколения.

**Ключевые слова:** Учебник, методика, метод, знания, опыт, начальная школа, педагогическое мастерство, учителя, образовательный процесс, дидактика.

## DEVELOPMENT OF A METHODOLOGY FOR WORKING WITH A NEW GENERATION OF TEXTBOOKS IN FUTURE ELEMENTARY SCHOOL TEACHERS

**Abstract:** This article analyzes the processes of forming a methodology for training primary school teachers to work with new generation textbooks. The study examines the theoretical and practical aspects of forming primary school teachers' skills in working with textbooks and its current issues. The mechanisms of effective work with textbooks are studied. Recommendations for working with new generation textbooks are highlighted.

**Keywords:** Textbook, methodology, method, knowledge, experience, primary school, pedagogical skills, teachers, educational process, didactics.



## KIRISH

Barchamizga ma'lumki, XXI asr maktab ta'lim tizimiga boshlang'ich sinf o'qituvchilari uchun samarali metodikalar yaratish, jahon standartlariga javob beruvchi yangi avlod darsliklarini joriy etish muhim ahamiyat kasb etmoqda. Zero, umumta'lim maktablarida darsliklar markazida turadi. Shuningdek, ta'limning sifatini belgilovchi asosiy indikator vositasi sanaladi. Darsliklarning sifatini yaxshilash va o'qituvchilarga darslik bilan ishslashning samarali usullarini o'rgatish, maktab ta'limni rivojlantirishning eng muhim yo'nalishlaridan biri sifatida dolzarblik kasb etmoqda.

## MAVZUGA OID ADABIYOTLARNING TAHLILI

Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining darsliklari bilan ishslashga o'rgatish metodikasini shakllantirish bo'yicha bir nechta olimlar tomonidan tadqiqot ishlari olib borilgan bo'lib, bunga Vygotsking ijtimoiy konstruktivizm nazariyasi, o'qituvchi va o'quvchilar o'rtasidagi ijtimoiy o'zaro ta'sirni ta'kidlaydi. Bu, boshlang'ich ta'limda o'qituvchining darsliklar bilan ishslashda o'quvchilarning rivojlanish jarayoniga yordam berishining muhimligini ko'rsatadi. O'qituvchi darslikni o'quvchilarga samarali tarzda tushuntirishi, ularga yo'l-yo'riq ko'rsatishi va individual yondoshuvlarni qo'llashi kerak. Piaget, J. (1972). "The Psychology of the Child": Piagetning bolalar psixologiyasi haqidagi tadqiqotlari, boshlang'ich sinf o'qituvchilarining darslik bilan ishslash metodikasi haqida ma'lumot beradi. U bolalarning kognitiv rivojlanish bosqichlarini o'rganib, o'qituvchiga darsliklarni va ta'lim metodlarini bolalarning yoshiga mos ravishda tanlash zarurligini ta'kidlagan. Bu metodika, bo'lajak o'qituvchilarga o'z faoliyatida darsliklarni qanday qilib samarali qo'llashni o'rgatishda foydalidir. Davlat ta'lim standartlari va milliy dasturlar (O'zbekiston Respublikasi): O'zbekistonning ta'lim standartlari va milliy dasturlari, boshlang'ich sinf o'qituvchilariga darsliklar bilan ishslashda ma'lum qoidalar va metodlarni belgilaydi. Bu dasturlar, o'qituvchilarga darsliklarni qanday tanlash va ishlatish, o'quvchilarning individual ehtiyojlariga javob berish kabi masalalarni o'rgatadi.



## TADQIQOT METODOLOGIYASI

Darsliklar o'qitishning asosiy vositasi bo'lib, ular nafaqat o'quv materialini taqdim etadi, balki o'qituvchiga pedagogik vazifalarni amalgalashda yordam beradi. Darsliklar bilan ishlash metodikasi o'qituvchilarning darslikdan to'g'ri foydalanish ko'nikmalarini shakllantirishga xizmat qiladi.

Shuningdek, darsliklar bilan ishlashning quyidagi bir nechta asosiy elementlari mavjud:

1. Darsliklarning mazmunini o'rGANISH: O'qituvchilar darslikdagi materiallarni yaxshi o'zlashtirib, ular bilan ishlashda metodik yondashuvni bilishlari kerak. Darslikning har bir bo'limi, mavzusi va qismiga alohida e'tibor qaratish o'qituvchilarga ta'lim jarayonini samarali tashkil etishga yordam beradi.

2. Darslikni o'quvchilarga moslashtirish: Har bir sinfning o'quvchilari o'z xususiyatlari, qobiliyatları va o'zlashtirish darajalariga ega. Shuning uchun, darslikda berilgan materialni o'quvchilarning individual ehtiyojlariga mos ravishda tushuntirish kerak. Bu, o'z navbatida, o'qituvchining pedagogik kompetensiyasini oshirishga yordam beradi.

3. Interaktiv metodlar va materiallar bilan ishlash: Darslikni faqat o'qish yoki tushuntirish uchun emas, balki o'quvchilarning faol ishtirokini ta'minlash uchun ishlatish kerak. Bu, o'qituvchiga darslik orqali interaktiv faoliyatlarni tashkil qilishda yordam beradi, masalan, guruh ishlari, muhokama, amaliy mashqlar va boshqa metodlarni qo'llash.

4. Darsliklarning qo'llanilishini tahlil qilish: O'qituvchilar darsliklarni qanday qilib samarali ishlatish haqida muntazam tahlillar o'tkazishlari lozim. Bu o'z ichiga o'quvchilarning darslikdan qanday foydalanayotganini kuzatish, qo'shimcha manbalarni ishlatish va o'quvchilarning qiyinchiliklarini aniqlashni o'z ichiga oladi.

Yuqorida darslik bilan ishlash elementlari asosida bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining yangi avlod darsliklari bilan ishlash bo'yicha o'qitish samaradorligini aniqlash muhim ahamiyat kasb etadi. Chunonchi, boshlang'ich sinf o'qituvchilarining darsliklar bilan ishlashga tayyorligini baholash quyidagi bosqichlardan amalgalashda oshiriladi:



Birinchi bosqich- (So'rovnama va intervyu)- o'qituvchilarni darsliklar bilan ishlashga tayyorligini baholash uchun so'rovnama va intervyu o'tkazish. Bu usul orqali o'qituvchilarning darsliklar bilan ishlashdagi qobiliyatlari, tajribalari va muammolari aniqlanadi.

Amaliy mashqlar va treninglar: O'qituvchilarga darsliklarni samarali ishlatish bo'yicha amaliy mashg'ulotlar tashkil etish. Bu mashqlar o'qituvchilarga o'z bilimlarini mustahkamlash va darsliklardan to'g'ri foydalanish ko'nikmalarini rivojlantirish imkonini beradi.

Pedagogik eksperimentlar: Darsliklar bilan ishslashning turli metodikalarini sinovdan o'tkazish va ularning samaradorligini baholash. Bu eksperimentlar o'qituvchilarga yangi metodlarni sinab ko'rish imkonini beradi.

## NATIJALAR VA MUHOKAMALAR

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, boshlang'ich sinf o'qituvchilari darsliklar bilan ishlashga tayyorligi o'quvchilarning muvaffaqiyatini ta'minlashda muhim rol o'ynaydi. O'qituvchilar darsliklar bilan ishlashda turli metodlarni qo'llaganida, o'quvchilar materialni yaxshiroq o'zlashtiradi va ta'lif jarayonida ko'proq faol ishtirok etadi.

Bundan tashqari, o'qituvchilarning metodik tayyorgarligi, ularning pedagogik kompetensiyalarini oshirishga va darsliklarni samarali ishlatishlariga yordam beradi. O'qituvchilar orasida darsliklar bilan ishlash metodikasiga oid bilim va amaliy ko'nikmalarning yetishmasligi ko'rsatilgan, shuning uchun o'qituvchilarni muntazam ravishda trening va seminarlar o'tkazish zarur.

Tadqiqot jarayonida ishlab chiqilgan "Mening sevimli kitobim" metodini qo'llashning asosiy xususiyatlari quyidagilardan iborat:

- yozma va og'zaki nutqni rivojlantirishga yordam beradi;
- o'quvchilarda mas'uliyat hissini uyg'otadi;
- o'zaro hamkorlik aloqalarini mustahkamlaydi;
- fikr almashish imkonini yaratadi;
- o'z tezligi va qulayligida, ijodiy va original tarzda muloqot qilish imkonini beradigan kuchli metod hisoblanadi.



"Mening sevimli kitobim" metodi barcha fanlarni o'qitishda qiziqarli va effektiv vosita vazifasini bajaradi. "Mening sevimli kitobim" o'quvchilar uchun o'z fikrlarini, kundalik odatlarini, turmush tarzini, did va afzalliklarini ifoda etish imkonini berishi mumkin. Mening sevimli kitobim o'quvchilarni tilni haqiqiy fikr almashish, tanqidiy fikrlash yoki ma'lum bir til funksiyasini namoyish etish yo'nalishi sifatida mavzu mazmunini ochishga yordam berishda, muhim ahamiyat kasb etadi.

"Mening sevimli kitobim" metodining qo'llanilishi:

1. Bir bo'lim yuzasidan butun sinf bitta mening sevimli kitobim tayyorlashadi. Albatta, bunga uzoq muddatli tayyorgarlik kerak.
2. Bir bo'limni tugatdingiz, o'quvchilar bilimini sinovdan o'tkazmoqchisiz. Demak, nazorat ishi singari bir darsni mustahkamlash darsi sifatida qabul qiling.
3. O'quvchilar bo'limdagi bir mavzu asosida kichik ilmiy ish (bayon) yozishlari kerak.
4. Bu bayon mavzuning so'zma-so'z plagiat varianti bo'lmaydi.
5. Ular o'qigan kitoblari asosida o'zlarining shahsiy fikrlarini ushbu kitobda bayon qilishadi, buning uchun albatta o'qituvchi hamma uchun bir hil asarni tanlab berishi lozim, bu sinfda hammaning bir mavzu yuzasidan sog'lom raqobat qilishiga sharoit yaratadi. Bu esa o'z navbatida darsning yanada qiziqarli bo'lishini taminlaydi.
6. "Mening sevimli kitobim" metodi o'quvchilarning ijodiy fikrlash, nutqiy ko'nikmalarini rivojlantirish, o'z fikrini erkin ifoda etish va o'qishga bo'lgan qiziqishini oshirishda samarali usuldir. Bu metod orqali o'quvchilar nafaqat mavzuni chuqur o'zlashtiradilar, balki o'zlarining shaxsiy qarashlarini, qiziqishlarini va hayotga bo'lgan munosabatlarini ham bayon qilish imkoniga ega bo'ladilar. Metod o'qituvchi va o'quvchi o'rtasidagi ijobiy munosabatlarni mustahkamlab, o'zaro hamkorlik muhitini yaratadi. Eng muhimi, bu metod bolalarni kitob o'qishga undaydi, mustaqil fikrlashga chorlaydi va ularning kelajakda egallaydigan bilimlariga mustahkam zamin yaratadi. Shu sababli, "Mening sevimli kitobim" metodini barcha fanlarda qo'llash tavsiya etiladi.

Bunday mustaqil ishlarning o'quvchilar o'rtasida o'tkazilishida o'qituvchi va o'quvchilar o'rtasida munosabatlarni yanada mustahkamlab, yangi asarlar va



kitoblarni o'qishga qiziqishi ortadi, kelgusidagi oladigan bilim va ko'nikmalariga zamin yaratadi. Zero hozirgi zamon talabi ham aynan shu, bolalarni kitobga qiziqtish, globallashuv jarayonida turli hil oqimlardan olib qolish.

Bu jarayon o'quvchilar nutqiy qobiliyatlarini oshirishga yordam beradi. Shu ma'noda, mening sevimli kitobimlar baholanish mezonini ham ishlab chiqish zarur. Imloviy, grammatik, uslubiy xatolar ham ahamiyatlidir. Eng asosiy o'rinda mazmun jihatdan mavzuni yoritib berish ko'nikmasi turadi.

### TAHLIL VA NATIJALAR

Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining darsliklar bilan ishslashga tayyorlik samaradorligi quyidagi ishlarni amalga oshirishga orqali natijalarga erishiladi:

- darsliklarni samarali ishlatish bo'yicha maxsus treninglar va seminarlar tashkil etish;
- o'qituvchilar uchun metodik qo'llanmalar yaratish va darsliklardan foydalanishning samarali usullarini o'rgatish;
- amaliy mashqlar va pedagogik eksperimentlar orqali o'qituvchilarni darsliklar bilan ishslashga o'rgatish.

### XULOSA VA TAKLIFLAR

Zamonaviy ta'lif tizimida boshlang'ich sinf o'qituvchilarining kasbiy tayyorgarligini takomillashtirish, ayniqsa yangi avlod darsliklari bilan samarali ishslash metodikasini rivojlantirish dolzarb masalalardan biridir. Yangi avlod darsliklari o'quvchilarning ijodiy fikrashi, mustaqil ishlashi va kompetensiyalarini shakllantirishga xizmat qilgani bois, bo'lajak o'qituvchilar ushbu darsliklarning mazmun-mohiyatini chuqur anglab, ulardan to'g'ri foydalanish ko'nikmalariga ega bo'lishlari zarur.

Kelgusida pedagogik ta'lilda yangi avlod darsliklarini chuqur o'rganish, ularni tatbiq etishda o'qituvchilarning metodik savodxonligini oshirish, shuningdek, ularni o'zlashtirishda innovatsion yondashuvlarni keng joriy etish ta'lif sifati va samaradorligini yanada oshirishga xizmat qiladi.



## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Erkin va farovon, demokratik O'zbekiston davlatini birligida barpo etamiz. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti SH.Mirziyoyev asari.
2. D.A.Muminova, M.N.Qo'ldasheva, N.Z.To'rayeva, Z.B.Yulchiyeva. Tabiatshunoslik va uni o'qitish metodikasi. Darslik. Namangan. 2023UNESCO (2020). "Teaching and Learning: Achieving Quality for All". Global Education Monitoring Report.
3. Vygotsky, L. S. (1978). "Mind in Society: The Development of Higher Psychological Processes".
4. Davlat ta'lim standartlari va milliy dasturlar (O'zbekiston Respublikasi).
5. Faryadi, Q. (2012). "Teaching Methodologies for Primary Education".